

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI BILAN INTEGRATSIYALASHUVI

TDIU Moliya fakulteti talabasi M.O. Gulmurodova

Ilmiy rahbar: U.A. Yuldasheva

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O'zbekistonning xalqaro moliya institutlari bilan aloqalari va ularni iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan bo'lib, statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar. *Integratsiya, Jahon Banki, Xalqaro Valyuta Fondi, MDH mamlakatlari, tashqi savdo aylanmasi, moliya-kredit munosabatlari.*

Аннотация. *В данной статье описаны отношения Узбекистана с международными финансовыми институтами и их роль в развитии экономики, проанализированные на основе статистических данных.*

Ключевые слова. *Интеграция, Всемирный банк, Международный валютный фонд, страны СНГ, внешнеторговый оборот, финансово-кредитные отношения.*

Abstract. *This article describes Uzbekistan's relations with international financial institutions and their role in the development of the economy, analyzed on the basis of statistical data.*

Key words. *Integration, World Bank, International Monetary Fund, CIS countries, foreign trade turnover, financial and credit relations.*

Kirish. Hozirgi kunga kelib, xalqaro moliya institutlari, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar tanqisligini to'ldirib turish, savdodagi nomutanosiblikni bartaraf etish, kapitallar oqimini xalqaro miqyosda kengaytirish va jadallashtirish orqali jahon savdosini rivojlanishiga ko'maklashish tendensiyasini namoyon etmoqda. Xalqaro moliya va jahon iqtisodiyoti barqarorligini ta'minlashdagi dunyo hamjamiyati sa'y-harakatlarini birlashtirish, hukumatlararo valyuta hamda moliya-kredit munosabatlarini tartibga solishdagi jadallashtirish, dunyo valyuta

taktikasi, strategiyasi hamda moliya-kredit siyosatini ishlab chiqish va muvofiqlashtirishdagi o'rnining liderlik darajasiga chiqish tendensiyalari ham kuzatilmoqda[1]. Demak, tadqiqot o'rganish obektlari bo'lmish Jahon banki guruhi, Osiyo taraqqiyot banki hamda Islom taraqqiyot banklarining xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorligining zamonaviy xususiyatlarini aniqlash, tahlil qilish, o'zgarishlarga baho berish maqsadga muvofiq.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda, aynan xalqaro moliya institutlari, davlatlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik ko'prigi hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida jahon hamjamiyati baynalminallashuvining obyektiv tendensiyasi sifatida namoyon bo'ladi. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev o'z nutqida tarixiy aloqalarni tiklash muhimligini, sa'y-harakatlarni birlashtirish fursati kelganini ta'kidlaganlaridek: "Bugun dunyo ham tahdidlar, ham yangi imkoniyatlarni o'zida tutgan global geosiyosiy transformatsiyalar davriga qadam bosdi. Bunday sharoitda 2 milliarddan ziyod odam yashayotgan Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi aloqalarning qayta tiklanishi yanada muhim va ob'yektiv jarayonga aylanib bormoqda. Xalqlarimizning ulkan tarixiy, ilmiy va ma'naviy-madaniy merosidan, iqtisodiyotlarimizning bir-birini to'ldirib turishidan, intellektual salohiyat va mehnat resurslarining borligidan kelib chiqib, birgalikdagi sa'y-harakatlarni birlashtirish fursati keldi, deb o'ylayman va bu, shubhasiz, katta manfaat keltiradi¹⁾".

Adabiyotlar sharhi. Xalqaro moliya tizimi rivojlanishining nazariy va amaliy jihatlari qator xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilgan. Ilmiy izlanishlar olib borgan xorij iqtisodchi-olimlar qatoriga John Maynard Keynes[2], Alvin Hansen[3], Jacob Viner[4], Joseph Stiglitz[5] kabilarni kiritish mumkin. Mamlakatimizda xalqaro moliya tizimi rivojlanishining yo'nalishlari iqtisodchi-olimlar A.Vahobov, U.Burxanov, N.Jumayev[6], G.Qosimova, X.Jamolov[7], G.Nazarova, I.Ahmedov [8]kabilarning ilmiy ishlarida tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar. MDH mamlakatlari bilan ikki va ko'p tomonlama hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish O'zbekistonda tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz dastlabki yillardanoq hamdo'stlik tashkil etish g'oyasini qo'llab-quvvatladi, uning muassislaridan biri sifatida qatnashdi. MDH tashkil qilingan dastlabki kundan boshlab O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish, xo'jalik-aloqalarini saqlash va kengaytirish, siyosiy ishlarga aralashmaslik, bir-biriga sun'iy ta'sir qilmaslik tarafdori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin oldi. MDH mamlakatlari bilan bo'lgan munosabatda O'zbekistonning o'rnini quyidagilardan iborat edi:

- MDHning barcha ishtirokchi davlatlari o'zaro manfaatlari va teng huquqli shartlarni e'tiborga olgan holda, iqtisodiy integratsiyaning ustuvorlikda bo'lishligi sharti:

- O'zbekiston Respublikasi o'zaro manfaatli hamkorlik qilishda ixtiyoriylik tamoyiliga amal qilish tarafdori ekanligi va boshqalar. MDH sammitlarida, davlat rahbarlari kengashning tor doiradagi uchrashuvlarida hamda kengaytirilgan tartibdagi muzokaralarda yalpi xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda, terrorchilik, diniy ekstremizm va uyushgan jinoyatchilikka, qurol-yaroq va narkotik moddalar kontrabandasiga, noqonuniy muhojirlikka qarshi kurashda amaliy hamkorlikni har tomonlama kuchaytirish masalalari ko'rib chiqiladigan. Shu jumladan terrorizmga qarshi o'zaro hamkorlik masalalariga alohida e'tibor qaratadi. MDH doirasida noqonuniy muhojirlikka qarshi kurashdagi hamkorlik konsepsiyasi. jinoyatchilikka qarshi kurashning 2005-2007-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlarning davlatlararo dasturi, narkotik vositalar, psixotrop moddalarning noqonuniy savdosiga qarshi kurashda 2005-2007-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturlarining imzolangani buning dalilidir. MDH a'zolari energetika, suv zaxiralari, transport va boshqa shalarda mamlakatlarning hamkorligini rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratadilar. Oliy darajadagi uchrashuvda ko'riladigan asosiy masalalardan yana biri MDHga a'zo mamlakatlar o'rtasida savdoiqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirishdir.

Jahon iqtisodiyotida tovar va xizmatlarning erkin harakati o'zaro ishonch va hamkorlik ruhini mustahkamlaydi, axborot almashuvini kuchaytiradi. Ayni paytda qonunga zid bo'lgan savdo-sotiqqa chek qo'yiladi. Bu esa nafaqat kontrabanda va noqonuniy muhojirlik kabi iqtisodiy jinoyatlarning oldini olish, balki xavfsizlik nuqtai nazaridan ham g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. MDH mamlakatlari bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlar ham sezilarli ravishda rivoj topib bormoqda. Jumladan, 2020-yilda Ukraina bilan bo'lgan savdo aylanmasi 2-2.5 barobarga. Rossiya bilan 30-35 foizga, Markaziy Osiy davlatlari bilan 1.5-2 barobarga o'sgan edi. Shuningdek, savdo-iqtisodiy aloqalar Ozarbayjon, Annaniston, Belarus va Gruziya kabi mustaqil davlatlar bilan ham kengayib bormoqda. MDH mamlakatlari bilan O'zbekiston o'rtasidagi Tovar aylanmaning rivojlanishi teng huquqli va o'zaro foydali prinsiplarga asoslangan. 2010-2020-yillar davomida O'zbekiston bilan yirik savdo-iqtisodiy aloqalarni olib boruvchi davlatlar - Rossiya, Qozog'iston, Ukraina va Belarus hisoblanadi.

Albatta, tashqi savdo aylanmasida uzoq xorij mamlakatlari ulushining o'sib borishi O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari faollashib borayotganligidan uning jahon xo'jalik aloqalariga kirib borayotganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, bunday tendensiyalarning salbiy jihatlari ham mavjud. O'zbekiston geografik joylashuvi nuqtai nazaridan anklav davlat bo'lib, bevosita dengiz yo'llariga chiqish imkoniga ega emas. Bu esa tashqi iqtisodiy faoliyatda transport xarajatlarining yuqori bo'lishiga olib keladi. Shu sababli, qo'shni mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish mahsulot tannarxiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va raqobatbardoshlik darajasining oshishiga olib keladi.

1-Jadval

O'zbekiston eksporti va importiniog MDH respublikalari bo'yicha taqsimlanishi (jami eksportga nisbatan foiz hisobida)[9]

Eksport

	Qozog'iston	Rossiya	Ukraina	Boshqalar
2018	6.2	18.3	4.8	12.3
2019	6.3	16.5	4.7	13.2
2020	5.8	15.8	5.2	13.5
2021	5.7	14.7	4.1	13.7
2022	5.8	15.3	3.8	13.6
Import				
2018	9.2	15.9	6.2	11.0
2019	9.4	20.2	7.3	8.2
2020	9.6	22.0	5.2	7.5
2021	9.2	24.3	4.8	6.3
2022	8.7	25.2	4.2	5.8

O

z

b

e O'zbekiston Respublikasining MDH mamlakatlari o'rtasidagi ikki komonlama hamkorlik aloqalari ham rivojlanmoqda. 1992-yilning 20 martida

i O'zbekiston - Rossiya o'rtasida diplomatik munosabatlar o'ratildi. Ushbu munosabatlar uzoq muddatli strategik ahamiyatga ega bo'lib, har ikki mamlakat parlamentlarining raislari, hukumat rahbarlari va tashqi ishlar vazirlarining oliy maqomdagi tashrifi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

n **Xulosa.** MDHga a'zo mamlakatlar iqtisodiy integratsiyasining strategik maqsadlari bo'lib xalqaro mehnat taqsimoti imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun ishlab chiqarish ixtisoslashuvi vakooperttsiyasini rivojlantirish, Hamdo'stlikka kiruvchi barcha mamlakatlar aholisi turmush farovonligini yaxshilash hisoblanadi. MDH Mirasida bir necha submintaqaviy tashkilotlar tashkil etilgan. Bu o'z navbatida

D

H



m

MDH doirasida integratsiyaning «turli tezlikda», «ko'p darajali» borayotganligidan dalolat bermoqda.

YevrOsiyo iqtisodiy hamjamiyati asosan Bojxona Ittifoqini huquqiy kelib chiqishining davomchisi hisoblanadi. Ya'ni. uning rivojlanish jarayoni BI davrining boshlanishi bilan bog'liqdir. Jahon iqtisodiyotida MDHga a'zo davlatlar wnumiy vashuningdek, milliy davlat manfaatlarini hisobga olgan holda o'zaro foydali hamkorlikni amalga oshirib kelmoqda.

Davlatlararo iqtisodiy munosabatlarni MDH doirasidagi asosiy yo'nalishlar quyidagilardan biri MDH doirasida maqsadlar amalga oshgunga qadar integratsiyaga sakrab o'tmasdan, bosqichmabosqich ishlab ehiqarishni rivojlantirib erkin savdo hududlarini tashkil qilishdir: Erkin savdo hududlari MDHni integratsiya jarayonlari asosida yuksak darajada rivojlangan hamjamiyatga aylantirishi murnkin. Bir-biriga bog'lanib ketgan transport tannoqlari, neft-gaz quvurlari, shuningdek, xalq xo'jaligining o'zaro bog'liqligi, a'zo davlatlarning bevosita qo'shniligi va boshqa omillar savdo-iqtisodiy hamkorlik uchun qulay imkoniyatdir. MDHning har bir a'zosi boshqa bir a'zo davlatlarning manfaatlariga to'g'ri yondashgandagina hamdo'stlikning istiqboli porloq bo'ladi. Boshqaeha qilib aytganda, avvalo bareha a'zo davlatlar manfaatlariga mos keladigan masala va mavzuni ko'tarish, keyin hammaning bu masalaga munosabatini inobatga olish lozim. MDH mamlakatlari bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi savdo iqtisodiy munosabatlar ham sezilarli ravishda rivoj topib bormoqda.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Sh. M. Mirziyoyev “Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” Toshkent: O‘zbekiston, 2016
2. John Maynard Keynes “The General Theory of Employment, Interest and Money” Originallay published:1936. Pages: 472 (2007 edition);
3. Alvin H. Hansen “Economic Progress and Declining Population Growth” (Journal article) Pages:1
4. Viner J “International Trade Theory and its Present-Day Relevance”

5. “Economics and the Canadian economy”
6. “Xalqaro moliyaviy munosabatlar”, Toshkent Iqtisod-Moliya, 2019-yil, 604-bet
7. “Byudjet-soliq siyosati”, Toshkent Iqtisod-Moliya, 2019
8. “Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar”, o‘quv qo‘llanma, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti
9. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tayyorlandi.
10. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tayyorlandi.